


**Yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2022- yil yanvar-mart**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)


O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 7 548,0 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 159,6 %), Zarafshon shahrida 7 091,8 ming so'mni (149,9 %), Navoiy shahrida 4 921,0 ming so'mni (104,0 %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Konimex tumanida 4 702,2 ming so'mni (99,4 %), Karmana tumanida 3 430,1 ming so'mni (72,5 %), Tomdi tumanida 2 632,5 ming so'mni (55,7 %), Navbahor tumanida 2 257,7 ming so'mni (47,7%), Nurota tumanida 2 249,5 ming so'mni (47,6 %), Xatirchi tumanida 2 171,0 ming so'mni (45,9 %), Qiziltepa tumanida 2 165,4 ming so'mni (45,8 %), G'ozg'on shahrida 2 153,8 ming so'mni (45,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022- yil yanvar-mart, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan,  
% da qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, (dastlabki ma'lumot))



Viloyat bo'yicha 2022- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ulushi jamiga nisbatan: bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (151,1 %), sanoatda (148,2 %), qurilishda (109,2 %), axborotlashtirish va aloqada (79,5 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda (62,3 %), tashish va saqlashda (60,3 %), ta'lim sohasida (52,3 %), savdoda (49,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (49,3 %) va boshqa yo'nalishlarda (81,3 %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022- yil yanvar-mart, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Yuridik shaxslarda korxonalar va tashkilotlar soni, xodimlar soni va o'rtacha oylik ish haqi 2022- yil yanvar-mart**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	<b>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</b>	<b>Xodimlar soni kishida</b>	<b>O'rtacha oylik ish haqi ming so'mda</b>
<b>Navoiy viloyati bo'yicha - jami</b>	<b>1 223</b>	<b>171 404</b>	<b>4 730,5</b>
shu jumladan			
Sanoat	33	72 122	7 012,3
Qurilish	11	4 894	5 164,2
Savdo	11	1 153	2 344,1
Tashish va saqlash	9	1 920	2 852,7
Axborot va aloqa	6	655	3 761,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	40	1 981	7 145,6
Ta'lim	689	44 380	2 472,2
Sog'liqni saqlash va jtimoiy xizmatlar ko'rsatish	48	18 139	2 331,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	4	1 067	2 947,5
Boshqa faoliyat turlari	372	25 093	3 844,0

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili 2022- yil yanvar-mart (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

**Sanoat sohasida** 33 ta korxonada 72 122 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 42,0 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 7 012,3 ming so'mni tashkil etdi.



**Ta'lim sohasida** 689 ta muassasada 44 380 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 472,2 ming so'mni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida** 48 ta muassasada 18 139 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 331,9 ming so'mni tashkil etdi.



**Savdo sohasida** 11 ta korxonada 1 153 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 344,1 ming so'mni tashkil etdi.



**Qurilish sohasida** 11 ta korxonada 4 894 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 5 164,2 ming so'mni tashkil etdi.

**Axborot va aloqa sohasida** 6 ta korxonada 655 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Axborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 761,8 ming so'mni tashkil etdi.



**Tashish va saqlashda** 9 ta korxonada 1 920 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 852,7 ming so'mni tashkil etdi.



**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik** faoliyatida 40 ta muassasada 1 981 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 7 145,6 ming so'mni tashkil etdi.


**Boshqa faoliyat turlarida** 372 ta korxonada 25 093 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, Boshqa faoliyat turlarida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 844,0 ming so'mni tashkil etdi.



**Yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)

	<i>yanvar</i>	<i>fevral</i>	<i>mart</i>	<i>yanvar-mart</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 537,6</b>	<b>4 668,7</b>	<b>4 952,8</b>	<b>4 730,5</b>
Navoiy sh.	4 754,3	4 733,3	5 249,7	4 921,0
Zarafshon sh.	6 804,7	7 119,5	7 227,8	7 091,8
G'ozg'on sh.	2 041,6	2 170,0	2 250,3	2 153,8
Karmana t.	3 137,4	3 406,8	3 747,6	3 430,1
Konimex t.	4 603,2	4 606,0	4 869,7	4 702,2
Qiziltepa t.	2 067,7	2 162,9	2 254,3	2 165,4
Navbahor t.	2 117,3	2 291,2	2 359,9	2 357,7
Nurota t.	2 133,8	2 261,7	2 334,1	2 249,5
Tomdi t.	2 407,7	2 618,1	2 826,7	2 632,5
Uchquduq t.	7 268,8	7 642,6	7 713,7	7 548,0
Xatirchi t.	2 075,7	2 211,3	2 218,9	2 171,0

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021-yil sentabr oyida **822 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021- yil 17-avgustdagi PF 6279-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

3 810,8	Navoiy viloyati	4 730,5
3 967,3	Navoiy sh.	4 921,0
5 504,0	Zarafshon sh.	7 091,8
1 924,1	G'ozg'on sh.	2 153,8
2 813,3	Karmana t.	3 430,1
3 817,1	Konimex t.	4 702,2
1 866,3	Qiziltepa t.	2 165,4
1 945,5	Navbahor t.	2 357,7
1 951,1	Nurota t.	2 249,5
2 320,7	Tomdi t.	2 632,5
5 856,6	Uchquduq t.	7 548,0
1 847,0	Xatirchi t.	2 171,0

2021- yil

2022- yil

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 730,5 ming so'mni tashkil qilib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,1 foizga o'sdi.



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi  
(79) 223 07 41